

# KAYKOVUSNING «QOBUSNOMA» ASARIDA FUQAROLIK MADANIYATI TALQINI

**L.S.Elibaeva**

**Buxoro davlat universiteti o'qituvchi**

*Аннотация:* Kaykovusning «Qobusnoma» asari XI asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy asardir. Maqolada asardaagi fuqarolik madaniyati haqida so'z boradi.

*Калит so'zlar:* Javonmardlik, suxandonlik, kamtarlik, mehmondo'stlik, saxiylik, to'g'rilik, haqshunoslik, pok kiyinish, hunar.

*Аннотация:* «Кошмар Кайковуса» — крупное просветительское произведение XI века. В статье рассматривается гражданская культура в пьесе.

*Ключевые слова:* Щедрость, великодушие, смирение, гостеприимство, великодушие, честность, честность, чистое платье, профессия.

*Annotation:* The Nightmare of Kaikovus is a major educational work of the 11th century. The article deals with civil culture in the play.

*Keywords:* Generosity, generosity, humility, hospitality, generosity, honesty, honesty, clean dress, profession.

Har bir millat milliy merosi bilan umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlarni bog'lagan holda muqaddasdir. Har bir millatning o'ziga xos meros va qadriyatlariga suyangan holda tarbiyalash, milliy asosda yosh avlodga etkazish doimo dolzarb jarayonlardan biri bo'lib kelgan.

Inson kamolotiga qaratilgan, xalq yaratgan boy tajriba, ilmiy tadqiqotga doir manbaalarga O'rta Osiyo va jahon ma'rifatparvar, mutafakkir olimlarning asarlariga suyangan holda komil insonni tarbiyalash, o'qitishning qoida va umumiy qonuniyatlariga asoslanadi.

Kaykovusning «Qobusnoma» asari XI asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy asardir. XI asrning 82-83 yillarida G'arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus

ibn Iskandar o'z o'g'li Gilonshohga bag'ishlab «Nasihatnoma»sini yaratadi va o'sha davr an'anasiga ko'ra uni bobosi podshoh Shamsul-maoliy Qobus sharafiga «Qobusnoma» deb ataydi.

«Qobusnoma» asrlar mobaynida G'arb va Sharq mutafakkirlarining e'tiborlarini o'ziga jalb etib kelgan. 1702-1705 yillarda Turk tiliga, 1786-1787 yillarda Muhammad Siddiq Rashidiy tomonidan uyg'ur tiliga, 1881 yilda Qayum Nosiriy tomonidan tatar tiliga hamda XIX asrdayoq ingliz, farang, olmon, rus tillariga tarjima qilindi. 1935 yilda Tehron dorulfununining professori, atoqli adib Said Nafisiy «Qobusnoma»ni Tehronda bosmadan chiqardi. 1860-yilda «Qobusnoma» o'zbek tilida birinchi marta buyuk shoir va mutafakkir Muhammad Rizo Ogaxiy tomonidan tarjima qilindi.

Kaykovus o'z hayoti davomida ko'rgan-bilganlari asosida O'zining buyuk "Qobusnoma" asarini yaratdi. Kitobni u o'g'li Gilonshohga bag'ishlagan. Bu paytda Kaykovus taxminan oltmish yoshlarda edi.

Kaykovusning «Qobusnoma» asari qirq to'rt bobdan iborat. Bular, Parvardigori olamni tanimoq zikrida, Payg'ambarlarning xilqati zikrida, Ota-ona xaqini bilmak zikrida, Hunar afzunligi, Baland qadr va oliy ta'b bo'lmoq bayoni zikrida, Suxandonlik bilan baland martabali bo'lmoq zikrida, Qarilik va yigitlik sifati zikrida, Sharob ichmak zikrida, Farzand parvarish qilmoq zikrida, Do'st tutmoq zikrida, Ilm talabi va qozigarlik zikrida, Tib ilmi rasmi zikrida, Javonmardlik zikrida.

Kaykovusning "Qobusnoma" asari o'z davri uchun ayniqsa, katta ahamiyatga ega bo'lib, insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Kaykovus bilim va aqlning ahamiyatini ulug'lar ekan, uni mol-dunyodan ham yuqori qo'yadi: «Agar molsizlikdan qashshoq bo'lsang, aqldan boy bo'lmoqqa sa'y ko'rguzgilki, mol bilan boy bo'lg'ondan, aql bilan boy bo'lgon yaxshirokdur, nedinkim, aql bilan mol jam etsa bular ammo mol bilan akl urganib bulmas. Bilgil, akl bir moldurki, uni ugri olmas, u utda yonmas, suvga oqmas» - deb ta'riflar ekan, inson adabi xam aqlning belgisi («al –adab-suratil aql») deya xulosa chiqaradi.

Kaykovus javonmardlik tarbiyasi haqida asarning eng oxirgi bob qirq

to'rtinchi bobda so'z yuritadi. U odamlarning xislatlarini uch xilga bo'ladi: biri aql, biri rostlik va yana biri javonmardlikdir.

Javonmardlikni asosini Kaykovus uch narsada deb biladi. Birinchisi, aytgan so'zning ustidan chiqish, ya'ni rostlik; ikkinchisi rostlikka xilof qilmaslik; uchinchisi, insonparvarlik, xayr ishini ilgari tutish<sup>1</sup>. Ey farzand, u agar sen juvonmardlardek harakat qilmoq tilasang, dastlab juvondmardlik nima ekanligin va uning qandog' paydo bo'lurin aniq bilgil. Bilgilki, odam uch xil sifatga egadur. Barcha shaxs u xoh dono, xoh nodon bo'lsin, shu uch narsa bila xushnuddur. Bu uch narsaning biri akl, biri rostlik va biri javonmardlikdir. Xalqning da'vosiga haqiqat ila qarasang, hech kishi aql rostlik va javonmardlik bila yolg'on da'vo qilmag'usidur. Nedinkim bu uch sifatga ega bo'lmag'on hech kishi yo'kdur. Ammo odatning tundligi (shiddatligi, gazabi) va xiraligi (dahshatli qorongu) xalqning asli yo'lini bog'lab qo'yadi. Nedinkim, javonmardlik, dinoshlik, kamolot sharif – bularning hammasi aqlning sarmoyasidur va oliy aql tashabusi bila badanda paydo bo'ldilar. Har bir odamning nafasi bila aqli orasida jahl xiralik pardasi bo'lsa, aqldin jonga fikr, tadbir, javonmardlik va rostlik etishmas. Demak, haqiqatan, aqlli, hamiyatsiz bo'lmag'usidir.

Dunyoda mardumlik, ya'ni javonmardlik da'vosini qilmag'on hech odam yo'kdur, lekin, ey farzand, sen jahl qilib o'zgalardek bo'lmag'il va be'mani davo qilmag'il, Fayzi Oliyini o'rganmok va idrok qilmoq zikrinda ruhoniy yo'lni ta'lim va tafxim (anglatish) bila ochiq tutgil, toki sendin ma'no da'vo qilmagaylar.

Javonmardlik asli uch narsadur: biri ulkim, aytg'on so'zingni o'zing qilsang, ikkinchisi ulkim, rostlikka xilof qilmasang, uchinchisi ulki, xayr ishnini ilgari tutsang. Odamdagi qolgan barcha sifatlar bu uch narsaning ostidadir.

Insondagi boshqa barcha xislatlar shu uch narsaga bog'liq, deydi Kaykovus. Javonmardlik (yoki iyorlik)ning ustunlarini (ruknlari) quyidagilarda deb ko'rsatadi: jasurlik, mardlik, sabr-matonat, va'daga vafo qilmoq, pok dil va pok zabon bo'lmoq; asirlarga ziyon etkazmaslik, bechora kishilarga madad berib,

---

<sup>1</sup> Кайковус. Кобуснома. Нашрга тайёрловчи С.Долимов. Тошкент, Ўқитувчи, 1986. 153-бет. (Бошқа мисоллар ҳам шу нашрдан олинди.)

yomonlarning yomonlig'ini yaxshilardan yiroq tutish, rostgo'ylik, insonparvarlik , yaxshiga yomonlik qilmaslik, ziyon-zahmatdan saqlash, odamlarga ziyon-zahmat etkazmaslik. Javonmard sipohiyar esa sabr-bardosh bilan ish tutishi, kamtarlik va mehmondo'stlik, sahiylik, to'g'rilik, haqshunoslik, pok kiyinish, yaxshi qurollanishi zarurligini qayd etadi.

Kaykovusning o'zi ta'kidlaganidek, butun bir asar ana shu oxirgi bobida ta'rif bergan juvonmardlar tarbiyasiga bag'ishlangan. Kaykovus unda "... barcha fikr va tushunchalarimning sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, ham hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq turt bobda bayon etdim"<sup>1</sup>, deyish bilan har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush tajribasi bilan bog'lagan holda kamolga etkazish yullari va usullarini bayon etgan. Kitobda juvonmardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yunalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazarda tutilgan:

1. Bilim olish haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3. Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy etuklik haqida.

Chunki har bir juvonmard uchun tan, jon, havos va maoniy, ya'ni ham sipohiylik, ham ma'rifat, ham donishmandlikka ega bo'lish zarur bo'lib, bu xislatlar ana shu yuqoridagi to'rt yo'nalishda zikr etilgan. Kaykovus ilmni uchga bo'ladi: biror kasb-hunarga bog'liq bo'lgan ilm; ilm bilan bog'liq kasb-hunar hamda xayr va dalolatga taalluqli odat.

Kaykovus «Qobusnoma» asarinining oxirida farzandiga aytgan dil so'zlarida har bir yosh egallashi zarur bo'lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog'liq faoliyat turlarini bilish kabilar ham o'z ifodasini topgan.

«Ey farzand, bilgilki, men shu qirq t o'rt bobda har xil ishlar to'grisida so'z dedim va har bob haqidagi masallar yuzasidan pand-nasihatlardim. Ammo aqllilik bobini zo'rlik bilan ayta olmasman. Aqlni kishiga zo'urlik bilan o'rgatib bo'lmas. Bilgilki, aql ikki xildur: biri tug'ma aqldur, uni azaliy derlar, ikkinchisi

---

<sup>1</sup> Кайковус. Кобуснома. 159-бет.

kasbiy aql, buni muktasib derlar, kasbiy aqlga donish ham derlar. Bas , agar azaliy aql bo'lmasa, men va sen hech iloj qila olmasmiz. Sen muktasib aqlni pesh qilmoqda kamchil qilmagil, qurbing yetgonicha o'rgangin, Aqllilar toifasidan bo'lmasang ham, donishlar toifasidan san, ikkisidan biriga ega bo'lmog'ing yaxshidir, nedinkim, debdurlar, agar ota bo'lmasa , onadan yaxshi kishi yo'qdir. Agar oqil bo'lmoq tilasang, hikmat o'rgangil, aql hikmat bila kamolga yetar. Donishdin : «Oqilning quvvati nimada?» - deb so'rabdurlar. Donishmand: «barcha kishining kuchi ovqatdadur, aqlning kuchi esa hikmatdadur», - deya javob bermishdur.

Ey farzand, bilgilki, har neki ish mening odatim erdi, hammasi sening uchun bu kitobga yozdim, bu faqat sening uchundur, ya'ni barcha fikr va tushunchalarimni sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, har hunar va peshakim bilur erdim, hammasini qirq to'rt bobda bayon etdim»

Kaykovusning katta xizmati shundaki, u yoshlarni hayotga tayyorlashda ularni har tomonlama kamolga etkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyatga tatbiqi nuqtai nazaridan ifodalashi bilan hamma zamonlarda, har qanday tuzumda ham o'z qimmatini yo'qotmadi va amaliy hayot dasturi sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
2. Kaykovus. Qobusnoma. T. 1994.
3. O'zbek pedagogikasi tarixi (qo'llanma). prof. A. Zunnunov tahriri ostida. T. 1997.
4. Hoshimov K., S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2010.